

YTTB moliyalashtirishi bo'yicha qo'llanma

2018-yil, yanvar



European Bank
for Reconstruction and Development

Nega aynan YTTB?

YTTB dunyoning uchta qit'asida samarali bozor iqtisodiyotini yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilashga ta'sir ko'rsatishga investitsiya qiladi.

Xususi sektorga investitsiyalar kiritish va siyosat borasidagi islohotlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratganimiz holda, o'zimiz faoliyat yuritayotgan hududlar iqtisodiyotini raqobatbardosh, inklyuziv, yaxshi boshqariladigan, barqaror, qulay va integratsiyalashgan bo'lishini ta'minlashga harakat qilamiz.

YTTB mintaqadagi eng yirik sarmoyador hisoblanib, o'zi faoliyat yuritadigan mamlakatlar iqtisodiyotiga, ya'ni amaliyot mamlakatlariga sezilarli hajmda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi.

Hududiy tajriba

YTTB 30 dan ortiq mahalliy ofislari tarmog'i orqali amaliyot mamlakatlarining iqtisodiyotida faol ishtirok etadi.

Innovatsion moliyalashtirish yechimlari

Bank o'zi moliyalashtirgan har bir loyiha uchun sohaviy, hududiy, huquqiy va ekologik ko'nikmalarga ega ixtisoslashgan mutaxassislar guruhini tayinlaydi.

Xatarlarga nisbatan kuchli ishtiyoq

Bank o'zining hukumatlar bilan aloqalari, maxsus kreditor maqomi va katta hajmli portfelidan foydalangan holda xatar (risk)larni baholash va qabul etish, shuningdek, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda foydalanadi.

Qiymat qo'shish

YTTB xususi moliyalashtirish manbalarini aslo siqib chiqarmaydi, balki bunday manbalarga qo'shimcha bo'ladi. Bank o'z moliyalashtirishi orqali qo'shimcha qiymat yarata olsagina, shuningdek moliyalashtirilayotgan loyiha ayni shartlarda bozordan moliya mablag'larini jalb eta olmasagina, mablag ajratadi.

Raqamlar so'zlaganda

Loyihalar soni (1991-yildan buyon)

5,035

Biznesning jami hajmi

€119.6 mlrd

Jami kredit bo'yicha foydalanilgan mablag'lar

€91.5 mlrd



YTTB qayerga investitsiya kiritadi

Albaniya	Ozarbayjon
Armaniston	Polsha
Belarus Respublikasi	Qirg'iziston
Bolgariya	Qozog'iston
Bosniya va Gertsegovina	Rossiya
Estoniya	Ruminiya
Gretsiya	Serbiya
Gruziya	Slovakiya
Iordaniya	Sloveniya
Kipr	Tojikiston
Kosovo	Tunis
Latviya	Turkiya
Litva	Turkmaniston
Livan	Vengriya
Makedoniya SYR	Ukraina
Marokash	Xorvatiya
Misr	O'zbekiston
Moldova	G'arbiy Sohil va G'azo
Mongoliya	Chernogoriya

YTTB moliyalashtirishi uchun talablar

YTTB xususi sektor loyihalarini 5 million yevrodan 250 million yevrogacha miqdorda kredit yoki ustav jamg'armasiga mablag' kiritish orqali moliyalashtiradi. YTTBning o'rtacha investitsiyasi hajmi 25 million yevroni tashkil qiladi. Kichikroq loyihalar esa, moliyaviy vositachilar orqali yoki kam rivojlangan mamlakatlar uchun ishlab chiqilgan maxsus dasturlar doirasidagi kichik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'rinishida moliyalashtirilishi mumkin.

YTTB moliyalashtirish mezonlari

YTTBdan moliyaviy mablag' ola olishi uchun loyiha quyidagi talablarni bajarishi zarur:

- ▶▶ YTTBning amaliyot mamlakatida joylashganligi;
- ▶▶ kuchli tijorat istiqbollariga ega bo'lishi;
- ▶▶ loyiha homiysidan katta miqdorda naqd yoki natural ko'rinishda ta'sis kapitalga ulush qo'shilishi;
- ▶▶ mahalliy iqtisodiyotga foyda keltirishi va xususi sektorning rivojlanishiga ko'maklashishi;
- ▶▶ bank standartlari va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha talablarga mos bo'lishi.

Loyiha tuzilmasi

YTTB har bir loyihani mijozning ehtiyojlari va iqtisodiyot, mintaq hamda sektorning o'ziga xos holatiga ko'ra moslashtiradi. Bank, odatda, yangi tashkil qilingan loyiha umumiy qiymatining 35 foizigacha qismini yoki kompaniya kapitalining 35 foizigacha qismini moliyalashtiradi. Bank loyiha homiylaridan ta'sis kapitaliga sezilarli hajmdagi qo'yilmalar qilinishini talab qiladi va ular YTTB investitsiyasi hajmiga teng yoki undan ko'p bo'lishi lozim. Shuningdek, homiylar va boshqa moliyalashtiruvchi sheriklar tomonidan yoki YTTBning sindikatlashtirish dasturi orqali jalb qilingan qo'shimcha mablag'lar ham ajratilishi kerak.

YTTB qo'llab-quvvatlaydigan sohalar

Agrobiznes
Energiya samaradorligi
Moliyaviy institutlar
Ishlab chiqarish
Shahar va atrof-muhit infratuzilmasi
Tabiiy boyliklar
Elektr va boshqa energiyalar ishlab chiqarish
Mulk va turizm
Kichik va o'rta korxonalar
Telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari
Transport

YTTB moliyalashtirmaydigan sohalar

Mudofaa bilan bog'liq faoliyat
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish
Muayyan spirtli mahsulotlar ishlab chiqarish
Xalqaro qonunchilik taqiqlagan moddiy boyliklar
Mustaqil qimorxonalar

Mavjud moliyalashtirish turlari

Kreditlar

YTTBning kreditlari mijozlar va loyiha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, yuqori darajada moslashuvchan qilib tuziladi. Bank kredit mablag'larini mos valyutada va foiz stavkasida taklif qiladi. Loyiha bo'yicha kutilayotgan pul oqimlari va mijozning kelishilgan muddat davomida kreditni qaytarish qobiliyati kredit olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kredit xatari to'raligacha Bank zimmasida yoki qisman sindikatlashishi mumkin. Kredit qarzdorning aktivlari bilan ta'minlanishi va/yoki aksiyalarga aylantirilishi yoxud kapitalga bog'lab qo'yilishi mumkin. Uning to'liq tafsilotlari muayyan kredit sharoitlaridan kelib chiqqan holda, mijoz bilan alohida muhokama qilinadi.

Kredit xususiyatlari

YTTB kreditlari quyidagi xususiyatlarga ega:

- ▶▶ kamida €5 millionga teng, ba'zi mamlakatlarda kamroq ham bo'lishi mumkin;
- ▶▶ o'zgarmas va o'zgaruvchan foiz stavkalarida;
- ▶▶ asosiy, subordinar, mezonin yoki konvertatsiya qilinadigan qarz;
- ▶▶ asosiy xorijiy valyuta yoki biror mahalliy valyutada denominatsiya qilingan;
- ▶▶ qisqa yoki uzoq muddatli, 1 yildan 15 yilgacha bo'lishi;
- ▶▶ zarurat bo'lsa, imtiyozli davrga ega bo'lishi.

Foiz stavkalari

YTTB kreditlari EURIBOR kabi joriy bozor stavkalaridan kelib chiqqan holda raqobatli ravishda baholanadi. YTTB o'zgarmas va o'zgaruvchan foiz stavkalarida (foizning qat'iy maksimum hamda qat'iy maksimum va minimum ko'rsatkichini birgalikda) taklif qiladi. YTTB loyihalarga subsidiya bermaydi, imtiyozli kredit taklif qilmaydi hamda xususiy banklar bilan raqobatlashmaydi.

To'lovlar va yig'imlar

Muayyan mamlakatdagi xatarlar va loyihaga xos xatarlarni hisobga olgan holda, tayanch stavkaga qo'shimcha tarzda ustama qo'shiladi. Bu ma'lumot mijoz uchun ham, YTTB uchun ham maxfiy hisoblanadi. Bu ustamaga qo'shimcha tarzda bank quyidagi yig'im va komissiya to'lovlari oladi:

- ▶▶ baholash uchun to'lov;
- ▶▶ bir martalik komissiya to'lovi va moliyani tizimlash yig'imi (oldindan to'lanadi);
- ▶▶ sindikatsiya uchun to'lov (agar tegishli bo'lsa);
- ▶▶ majburiyat to'lovi (va'da qilingan, lekin mijozga ajratilmagan kredit qismi uchun);
- ▶▶ kredit konvertatsiyasi uchun to'lov, foizlarni to'lash yoki valyutani konvertatsiya qilish paytida to'lanadi (agar konvertatsiya qilinadigan bo'lsa);
- ▶▶ holatdan kelib chiqqan holda, muddatidan oldingi to'lov, bekor qilish yoki kechikkanlik uchun to'lovlar;

Tijorat amaliyotiga muvofiq, homiylar YTTBning texnik maslahatchilar uchun qilgan to'lovlari, tashqi huquqshunos va xizmat safarlari xarajatlari kabi to'lovlarni o'z hisobidan qoplab berishi shart.

Boshqa shartlar

To'liq kreditlash shartlari har bir loyiha uchun mijoz bilan kelishib olinadi.

Homiy kafolati

Homiydan kafolat so'rash har doim ham talab etilmaydi. Shunga qaramay, YTTB homiylardan maxsus yordamlar, yakuniy kafolatlar hamda boshqa ko'rinishdagi ko'maklarni so'rashi mumkin va bu cheklangan huquq asosidagi moliyalashtirishda odatiy amaliyot hisoblanadi.

Sug'urta

YTTB loyihani amalga oshiruvchi kompaniyalardan sug'urtalanishi mumkin bo'lgan oddiy xavflardan sug'urtalanishni talab qiladi. Aktivlarning o'g'irlanishi, yong'in chiqishi, qurilishga bog'liq maxsus xavflar bunga misol bo'la oladi. Bank siyosiy xavf yoki milliy valyutaning konvertatsiya qilinmasligini sug'urta qilishni talab qilmaydi.

Ta'minot

YTTB odatda o'zi moliyalashtirayotgan kompaniyalardan kredit mablag'larini loyiha aktivlarining garovga qo'yilishi orqali ta'minlanishini talab qiladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ▶▶ yer, zavod yoki boshqa binolar kabi ko'chmas mulklar;
- ▶▶ uskunalar va boshqa biznes aktivlar kabi ko'char mulklar;
- ▶▶ kompaniyaning xorijiy va milliy valyutada daromadini to'lovlarga yo'naltirishni huquqiy belgilab qo'yish;
- ▶▶ homiyning kompaniyadagi aksiyalarini garovga olish;
- ▶▶ kompaniyaning sug'urta polisi va boshqa shartnomalardan keluvchi tushumlarini to'lovlarga yo'naltirishni huquqiy belgilab qo'yish.

Moliyaviy ko'rsatkichlar

Loyihani moliyalashtirishda amal qilinishi kerak bo'lgan moliyaviy ko'rsatkichlar kredit paketining bir qismi sifatida talab qilinadi. Bunday ko'rsatkichlar, masalan qarzdorlikni cheklash, muayyan moliyaviy ko'rsatkichlarni belgilash va boshqa masalalar mijoz bilan kelishilgan holga belgilanadi.

Kreditni qaytarish

Kredit, odatda, teng miqdordagi yarim yillik to'lovlar bilan qaytarib boriladi. Uzoqroq muddat va kreditni teng taqsimlanmagan to'lovlarda to'lash imkoniyati istisno tariqasida ko'rib chiqilishi mumkin. Masalan, yirik infratuzilma loyihalari uchun 15 yilgacha bo'lgan kreditlar ajratilishi mumkin.

Xedjirlash imkoniyatlari

YTTB loyiha aktivlari va majburiyatlari bilan bog'liq moliyaviy xatarlarni boshqarishda yordam berishi mumkin. Bu valyuta kursi, foiz stavkasi va mahsulotlar narxlarining o'zgarishi natijasida yuzaga keluvchi zarar xatarlarini o'z ichiga oladi. Xatarlarni xedjirlash vositalari sifatida valyutaga oid svoplar, foiz stavkalari svoplari, foizning qat'iy maksimumi, foizning qat'iy maksimum va minimum qiymati, opsiyonlar va mahsulot svoplarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Ta' sis kapitaliga qo'yilma

Agar qilingan investitsiya bo'yicha yaxshi daromadning qaytishi kutilayotgan bo'lsa, YTTB sanoat, infratuzilma va moliyaviy sohalarda €2 milliondan €100 milliongacha miqdorda ta' sis kapitaliga hissa qo'shishi mumkin. Bank odatda minoritariy aksiyador sifatida ishtirok etadi va ta' sis kapitaldan qanday chiqish bo'yicha aniq strategiyaga ega bo'ladi.

Ta' sis kapitali vositalari va ta' sis kapitali o'rnini bosuvchi vositalar

YTTBning ta' sis kapitali vositalari va ta' sis kapitali o'rnini bosuvchi vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ▶▶ Birjada ro'yxatga olingan va ro'yxatga olinmagan oddiy aksiyalar;
- ▶▶ subordinar va ta' sis kapitaliga konvertatsiya qilinishi mumkin bo'lgan kreditlar;
- ▶▶ ta' minotsiz hisob-kitob sertifikat;
- ▶▶ qaytarib olinuvchi imtiyozli aksiyalar;
- ▶▶ davlat yoki xususiy korxonalar chiqarayotgan aksiyalar uchun anderryayting (kafolatlangan xarid yoki joylashtirish).

Moliyalashtirishning boshqa turlarini YTTB xodimlari bilan muhokama qilish mumkin. Loyiha turidan kelib chiqib, YTTB, odatda, dastlabki investitsiya qilgan paytdan hisoblaganda, to'rt yildan sakkiz yilgacha bo'lgan davrda o'z ishtirokini yakunlaydi. Bankning kapitaldan chiqish strategiyasi, odatda, o'z hissasini loyiha homiylariga sotish yoki investitsiyani ommaviy taklif orqali sotishni nazarda tutadi. Shuningdek, YTTB muayyan mintaqa, mamlakat yoki sanoat sektoriga yo'naltirilgan, mahalliy ishtiroki bor va professional venchur kapitalistlar tomonidan boshqariladigan aksiyadorlik investitsiya fondlarida ham ishtirok etadi. Bu fondlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni amalga oshirishda YTTB bilan bir xil investitsiya mezonlaridan foydalanadi.

Kafolatlar

YTTBda turli xil kafolatlarni taqdim etish xizmati ham mavjud. Bunday kafolatlar, kelib chiqish sababidan qat'i nazar qarz beruvchini to'lovni ololmaslik xataridan himoya qilish maqsadida barcha xatarlarga qarshi kafolat ko'rinishida hamda ayrim holatlardan kelib chiqadigan defoltlarni qoplashni ko'zda tutuvchi qisman kafolatlarni o'z ichiga oladi. Barcha hollarda maksimal risk darajasi ma'lum bo'lishi va o'lchasa bo'ladigan bo'lishi, kredit riski esa maqbul bo'lishi zarur. Kafolatda ko'zda tutilgan vaziyatlarning aniq huquqiy ta'riflari va narxlar vaziyatdan kelib chiqqan holda ko'rib chiqiladi.

YTTB loyiha davri

YTTB loyiha davri quyidagi bosqichlardan iborat:

Konsepsiyani ko'rib chiqish – YTTB amaliyot qo'mitasi (OpsCom) loyiha konsepsiyasi va tarkibi hamda unda ko'zda tutilgan moliyalashtirish tuzilmasi va loyihani qo'llab-quvvatlovchi majburiyatlarni tasdiqlaydi. Bu bosqichda YTTB va mijoz loyiha rejasi, uni ishga tushirish xarajatlari va majburiyatlari ko'rsatilgan mandat xatini imzolaydilar.

Yakuniy ko'rib chiqish – asosiy tijorat bitimi (jumladan, moliyalashtirish bilan bog'liq shartlar kelishuvi imzolanganidan so'ng) kelishib olingandan so'ng va barcha tekshiruvlar yakunlangandan so'ng, OpsCom loyihani yakuniy tarzda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Kengash xulosasi – YTTB prezidenti va amaliyot guruhi loyihani Direktorlar kengashiga tasdiqlash uchun taqdim qiladi.

Imzolash – YTTB va mijoz kelishuvni imzolaydilar va u huquqiy kuchga kiradi.

Kredit mablag'larini o'tkazib berish – kreditni qaytarish shartlari va bank shartlarini bajarishga kelishilgandan so'ng kredit mablag'lari bank hisob raqamidan mijoz hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

Kredit to'lovlari – Mijoz kreditni kelishilgan jadvalga asosan YTTBga qaytaradi.

Ta' sis kapitalidagi ulushni sotish – bank loyiha ta' sis kapitaliga qilgan investitsiyasini regress talabi qo'llanilmasligi sharti bilan sotadi.

Yakuniy muddat – Kreditning yakuniy qismi Bankka qaytariladigan sana.

Loyihaning yakunlashi – Kreditning to'liq qaytarilishi va/yoki YTTBning ta' sis kapitaliga qilgan investitsiyasini sotib yuborish orqali loyihadan chiqish.

Birgalikda moliyalashtirish

YTTB loyihalarga nisbatan mahalliy va xorijiy kapitalni safarbar qilishga intiladi, chunki birgalikda amalga oshirilgan moliyalashtirish amaliyoti boshqa loyihalarni moliyalashtirish uchun mavjud resurslar hajmini oshiradi va qarzdorlarni xalqaro qarz bozorlariga olib chiqadi.


Birgalikdagi moliyalashtirish manbalari tijorat banklari, rasmiy birga moliyalashtiruvchi muassasalar (grantlar, parallel kreditlar va kapital investitsiyalarini amalga oshiruvchi davlat agentliklari va ikki tomonlama moliya institutlari), eksport-kredit agentliklari va Xalqaro moliya korporatsiyasi hamda Jahon banki kabi muassasalarni o'z ichiga oladi. YTTB tijorat kreditorlari sonini ko'paytirish va yangi qo'shma moliya tuzilmalarini hamda yangi mamlakatlarni bu bozorga jalb qilish orqali birgalikda moliyalashtiruvchi muassasalar bazasini kengaytirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Bank bozorga moslashuvchan ishtirokchi sifatida, mijozlarga taqdim etiladigan moliyaviy manbalarni maksimal darajada oshirishga va ular uchun eng maqbul moliyalashtirish usullarini topishga intiladi.

Birgalikda moliyalashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: A/B kreditlar (YTTB qarzning bir qismini moliyalashtiradi va qolgan qismini tijorat kreditorlari bilan hamkorlikda sindikatlashtiradi), parallel kreditlar, eksport kredit agentligi kafolati, siyosiy xatarlarni sug'urtalash, xalqaro moliya institutlari kreditlari va ta' sis kapitalga investitsiyalari, grantlar.

YTTB boshqa muassasalar bilan hamkorlikda moliyalashtirishning imkoniyatlarini oshirish va mintaqada investitsion muhitni yaxshilash ustida ish olib boradi.

Odatiy kapitalizatsiya tuzilmasi



Moliyalashtirish uchun kerakli hujjatlar

Loyihaning muvofiqligini baholash uchun YTTB quyidagi ma'lumotlarni talab qiladi:

Loyiha haqida ma'lumot

- ▶▶ loyihaning qisqacha tavsifi (unda YTTB mablag'laridan qanday foydalanilish rejalari batafsil ko'rsatilishi zarur);
- ▶▶ homiy haqida asosiy ma'lumotlar, jumladan, ish tajribasi, moliyaviy holati va kompaniya ushbu loyihani ta'sis kapitaliga qo'yilma, boshqaruv, amaliyot, ishlab chiqarish va marketing borasida qanday qo'llab quvvatlashi borasida axborot;
- ▶▶ ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatning tafsilotlari va uning qanday ishlab chiqarilishi;
- ▶▶ bozor, shu jumladan, ko'zda tutilayotgan xaridorlar, raqobat, bozordagi ulush va sotuv hajmi, narxlash strategiyasi va sotish kanallari haqida ma'lumot.

Moliyaviy holat haqida ma'lumot

- ▶▶ loyiha xarajatlari aniq ko'rsatilgan jadval va mablag'lardan qanday foydalanilishi haqida ma'lumot;
- ▶▶ loyihani amalga oshirish, jumladan pudratchilarga yuklatiladigan vazifalar haqida batafsil axborot va xaridlar jarayoni haqida ma'lumot;
- ▶▶ moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari tafsilotlari;
- ▶▶ loyihadan kutilayotgan moliyaviy natijalar sharhi.

Atrof muhitga oid va me'yoriy-huquqiy ma'lumot

- ▶▶ atrof muhitga oid har qanday muammo bo'yicha ma'lumot va zarurat tug'ilganda, ekologik audit xulosasi yoki oqibatlarini baholash xulosasi nusxasi;
- ▶▶ davlat tomonidan berilgan litsenziyalar yoki ruxsatnomalar, mavjud subsidiyalar, import/eksportga oid cheklovlar, bojxona tariflari yoki kvotalar, valyuta bo'yicha cheklovlar haqida batafsil ma'lumotlar.

YTTBga barcha kerakli ma'lumotlar kelib tushganidan so'ng mijoz bilan dastlabki aloqa o'rnatilib to moliya kelishuvining imzolanishiga qadar odatda, uch oydan olti oygacha vaqt kerak bo'ladi. Ba'zi hollarda esa, bu muddat kamroq bo'lishi ham mumkin. Loyihaning tashabbus davridan to ajratilgan mablag'ning qaytarilishiga qadar umumiy davr esa aylanma mablag'lar yoki savdoni moliyalashtirish loyihalari uchun bir yilgacha bo'lsa, uzoq muddatli suveren infratuzilma loyihalari uchun 15 yilgacha muddatni tashkil qilishi mumkin.

Agar siz YTTB kreditini olmoqchi bo'lsangiz, quyida ko'rsatilgan havola bo'yicha onlayn shaklni to'ldiring va birgalikda qanday ishlashimiz haqidagi fikringiz bilan o'rtoqlashing.

Bu onlayn shakllar faqat tijorat kompaniyalari yoki ularning nomidan ish yuritishga vakolatli bo'lgan vositachilardangina qabul qilinadi.

YTTB qat'iy maxfiylik siyosatiga amal qiladi. Taqdim qilingan ma'lumotlar, mijozdan tegishli rozilik olinmay turib boshqa biror tomonga taqdim qilinmaydi.

Tegishli shaklni yuborganingizdan so'ng yetti kun ichida siz YTTB vakilidan javob olasiz.

YTTB investitsiyasi uchun ariza

topshiring

www.ebrd.com/apply

Bog'lanish ma'lumotlari

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki

One Exchange Square
London EC2A 2JN
Tel: +44 20 7338 6000
Faks: +44 20 7338 6100

Vakolatxonalar

YTTBning turli mamlakatlardagi vakolatxonalarini bilan bog'lanish ma'lumotlarini Bankning quyidagi veb-sahifasidan topishingiz mumkin:

www.ebrd.com/contacts.html

Yangi loyiha takliflari

(Biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'limi)
Tel: +44 20 7338 7168
Faks: +44 20 7338 7380
Elektron manzil: newbusiness@ebrd.com

Loyiha bo'yicha savollar (mavjud loyihalar)

Tel: +44 20 7338 7168
Faks: +44 20 7338 7380
Elektron manzil: projectenquiries@ebrd.com

Ta'sis kapitaliga investitsiya mexanizmi

Tel: +44 20 7338 7750
Faks: +44 20 7338 6239
Elektron manzil: iskandao@ebrd.com

Savdoga ko'maklashuvchi dastur

Tel: +44 20 7338 6813
Faks: +44 20 7338 7380
Elektron manzil: TFPOps@ebrd.com
www.ebrd.com/trade

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash

Tel: +44 20 7338 7356
Faks: +44 20 7338 7742
Elektron manzil: sbs@ebrd.com
www.ebrd.com/work-with-us/advice-for-smallbusinesses/overview.html

Ma'lumot so'rovlari

Ma'lumot so'rovlari va umumiy so'rovnomalar uchun

www.ebrd.com/enquiries.html veb-sahifasidagi ma'lumot

so'rovnomasi shaklidan foydalaning

Nashrlar uchun so'rovlar

Tel: +44 20 7338 7553
Faks: +44 20 7338 6102
Elektron manzil: pubsdesk@ebrd.com
www.ebrd.com/publications

